



NAZAR ESHONQUL HIKOYALARI TAHLILI

Ilmiy rahbar

SANOBAR SAIDAZIMOVA

SamDCHTI Qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrası o'qituvchisi,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

SHABNAM UMURQULOVA

SamDCHTI o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada modernistik yozuvchi va kitobxon qalbining tub-tubigacha yetib boradigan asarlari bilan adabiyotga o'zgacha ruhda kirib kelgan Nazar Eshonqulning “Qo'l” va “Tobut” hikoyalarida qo'llanilgan badiiy tasvirlar, majoziy ramzlar tahlilga tortilgan. Shuningdek, kitobxon qalbini larzaga va junbushga keltiradigan hikoyalardagi qahramonlar taqdiri va ruhiyatidagi o'zgarishlar haqida tahliliy mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: badiiy, majoz, tobut, qo'l, nafs, tandir.

Avvalo Nazar Eshonqul hikoyalariga nazar tashlar ekanmiz, ijodkorning sermahsul ijodiga lol qolmay ilojimiz yo'q. Boisi, Nazar Eshonqul asarlari badiiy jihatdan pishiq va mukammal, mavzu va g'oya ko'lamiga ko'ra jahon adabiyoti bilan sintezlashganini, shuningdek, asarlaridagi g'ayritabiiy voqelik tasvirlari bilan e'tiborimizni tortadi. Nazar Eshonqul ijodi haqida adabiyotshunos S.Saidazimova quyidagicha fikr bildiradi: “Ma'lumki, zamonaviy o'zbek nasrida Nazar Eshonqul ijodi alohida o'ringa ega. Yozuvchining xos mahorati, voqelikka bo'lgan o'zgacha yondashuvi, tasvir va talqindagi yangicha qarashlari uni zamondosh adiblardan ajratib turadi. Asarlarida o'zlikni anglayotgan inson ichki ziddiyatlari, botin iztirobi, yolg'iz odam obrazi markaziy o'rinni egallaydi. Jamiyatda o'z o'rnini topa olmagan, iztirob va alam girdobida yashayotgan qahramonlarning ruhiy holati, hissiy kechinmalari o'ziga xos rakursda, chuqur psixologik tahlillar orqali ochib beriladi. Adibning “Urush odamlari”, “Momoqo'shiq” qissalari an'anaviy uslubda yozilgan bo'lsa, “Tun panjaralari”, “Qora kitob” nomli qissalari esa voqelikni g'ayrioddiy tasvirlashi, eksperimentlarga boyligi bilan nisbiy yangiligi, ya'ni modern yo'lini namoyon etadi. Ayni kuzatuvlari e'tibori bilan o'zini izlayotgan yoki o'zini yo'qotgan odam falsafiy mushohadalari yangicha ifodalangan modernistik asarlar sirasiga kiradi”[1;191-bet]

Xususan, Nazar Eshonqulning “Qo'l” hikoyasiga ko'z yugurtirar ekanmiz, kitobxon beixtiyor asarning tubiga sho'ng'ib ketadi. Bu hikoyada yozuvchi inson yaratilgandan buyon u bilan doimo yonma-yon bo'lgan “nafs”



haqida va hozirgi zamondagi insonlarning ikkiyuzlamachiligi, ya'ni insonlarning boshiga ish tushsa, dono xalqimiz ta'biricha, "Otning o'limi, itning bayrami" qabilida ish ko'rishi, sodda insonlarning ishonchini suiiste'mol qilinishi, go'l kishilarning ishonchidan foydalanib o'z ishini foydasiga bitirib olishi haqida yuksak darajada tushunarli qilib kitobxonga yetkazib berilgan. Misol tariqasida hikoyadan olingan quyidagi jummalarni keltirish mumkin: *"Xo 'sh bunday qilamiz....Andak chiqimdorrog'-u, ammo ish berishi aniq... Men qirq kun kechasi bilan qaytarma qilib o'qiyman. Shu bilan tinchib ketasiz, xonadoningizga orom kiradi... Salom xursand bo'lib ketdi: zora, qaytarma ish berib, qo'ldan qutilsa. Tandirchiga qaytarma qilish bir to'qliga tushgan bo'lsada (uniyam qaynisidan qarz olishga to'g'ri keldi), mulla Keldiyor vadasida turdi: qirq kunda qaytarma qilib o'qib berdi. Tandirchi endi" shayton qo'li"ning uydan g'oyib bo'lishini sabrsizlik va intiqlik bilan kuta boshladi. Ammo qo'l mulla Keldiyor aytganidek, qaytarma qilingandan so'ng bir hafta emas, uch hafta o'tsa ham yo'qolmadi. To'rtinchi haftada ro'zg'orini eplab turish uchun yana qarz olishga to'g'ri keldi."*[2]

Bu jumlalarda asar qahramoni Salomning soddaligi-yu, mullaning uddaburonligi, ya'ni "Andak chiqimdorrog'-u, ammo ish berishi aniq" gaplarida mullaning ayyorligi va quv ekanligi yaqqol seziladi.

Ushbu hikoyada adabiyotshunos S.Saidazimovanning fikrlari diqqatga sazovordir: "Nazar Eshonqulning aksariyat asarlarida paranormal voqeliklar modernizm uslubiga xos bo'yoqlarda chiziladi. Uning "Qo'l" hikoyasida ham g'ayritabiiy tarzda harakatlanadigan egasi yo'q qo'l motivi tasvirlari ayni paranormal ko'rinishdir. Muallif bu hodisa orqali birovlarining haqqiga qo'rqmasdan ko'z olaytiradigan, qorin-qursog'ini boshqalarning rizq-nasibasiga sherik bo'lib to'ldirib yuradigan, aksariyat hollarda o'zi ko'rinmasdan "qo'li" harakatlanadigan subutsiz va vijdotsiz kimsalarning umumiy portretini tasvirlaydi va uning shaytoniy amallardan ekaniga, iblisona quvvat ramzi sifatida namoyon bo'lishiga urg'u bergandek bo'ladi"[3; 18-bet].

Umuman olganda, yozuvchi birgina asardagi sodda tandirchi Salom o'rnida xalqning va ishonuvchan insonlarning xatti-harakatlari, shu bilan bir qatorda Azim rais, folchi, muallim, mulla singari obrazlar xalqning ishonuvchi qatlamidan foydalanuvchi, o'z foydasi uchun gunoh va makruh ishlardan qaytmaydigan insonlar obrazini qisqa va lo'nda qilib kitobxon qalbiga jo qilib qo'ygan.

Bundan tashqari, insonning hech qachon o'lmaydigan va insonning ustidan hukmron bo'lgan nafs balosi hikoyada markaziy muammo qilib olingan. Bu hikoyada qo'l-insonning qalbidagi ichki qora kuch ramzi sifatida mahorat bilan tasvirlangan. Bilamizki, nafs balosi necha ming asrlarki



insonning qalbida o'lmas qora kuch bo'lib yashab keladi. Bunga misol qilib, Ahmad Yassaviyning to'rtliklarini urg'u berib o'tishimiz mumkin:

Nafs yo'lig'a kirgan kishi rasvo bo'lur,
Yo'lda ozib, to'zib gumroh bo'lur,
Yotsa, qo'psa shayton bilan hamroh bo'lur,
Nafsni tepgil, nafsni tepgil, ey badkirdor.

Hozirgi zamonaviy turmush tarzimizda ham bu qora kuch ko'paygan bo'lsa borki, lekin insoniyat qalbini tark etgan emas. Donolarimiz aytganidek: "Nafs hech qachon o'lmaydi, nafs insonning qalbida uxlaydi, uni uyg'otib yuborish esa insonning xatti-harakatlari-yu, amallariga bog'liq".

Qo'shimcha tarzda shuni aytish joizki, asarni boshqa tomonidan olib qaraydigan bo'lsak, zamonaviy uslubda buni korrupsiya deb olishimiz mumkin. Bilamizki hozirgi kunda ko'rinmas dushman – korrupsiya xalqimiz orasida keng tarqalgan va buni qo'l obrazida majoziy o'xshatish deya olsak bo'ladi. Demakki, asardagi qo'l kabi korrupsiya ham kimlarning taboqiga (tovog'iga) qo'l cho'zmoqda. Xuddiki asardagi qo'l tandirchi Salomning dasturxoniga sherik bo'lgani kabi.

Nazar Eshonqulning keyingi hikoyasi ham kitobxon nazaridan chetda qolmaydi. Demakki, bu asar "Tobut" hikoyasidir. Nomidan bilish mumkimki, kitobxonni bu asarni o'qimasdanoq o'z nomi bilan o'ziga jalb qiladi. Yozuvchi "Tobut" hikoyasida "shahar"ni ramziylik timsolida olib, insoniyatning faqat mol-u dunyoning orqasidan yugurishi, go'zal va hashamatli osmono'par binolarni qurishi, bitta gap bilan aytganda dunyoga muhabbat qo'yishi yozuvchi tomonidan mohirona majoziy ma'noda tasvirlangan. Shu bilan bir qatorda, shahar hikoyada tobut shaklida qurilganligi haqida so'z ketadi. Misol uchun, mana shu jumlalarda yaqqol javobini uchratishingiz mumkin:

"U xonamga kechqurun kirib ketdi: juda horg'in edi, ko'zlarida dahshat aralash junun o'ynardi. Bir necha kun ichida u mushtday bo'lib qolibdi. Men uni kasal yuqtirgan chog'i deb o'yladim va uyga taklif qildim. U xonam to'riga qo'yilgan kursiga o'zini tashladi va yuzini qo'llari orasiga ancha vaqt yashirib o'tirdi, so'ng xuddi hamma narsani bosib yanchib o'tayotgan bo'ron kabi bir telbavor pichirladi: "Butun shahar tobut shaklida qurilgandi. Men buni loyihada ko'rdim. Biz shuncha kun tobutni kezib yurgan ekanmiz..." [2]

Shu kabi jumlalarda yozuvchining ijodkorlik mahorati yaqqol sezilib turibdi va asarning yechimi sifatida me'mor tomonidan shaharni tobut shaklida qurilganligi bilan o'z yakuniga yetadi. Kitobxonlarni esa birmuncha o'ylashga va tafakkur qilishga undaydi, oxirida esa mutolaa qiluvchi hikoyadan o'z xulosasini oladi.

So'nggi so'z o'rnida shuni aytish joizki, Nazar Eshonqulning qay bir



hikoyasi, qissasi va boshqa asarlari bo'lsa hamki kitobxon qalbini albatta zabt etadi va kitobxon qalbida muhrlanib qoladi. Misol tariqasida, uning yuqoridagi "Qo'l" hikoyasini aytadigan bo'lsak, insoniyat o'z nafsini jilovlay olishi, uni har qanday holatda ham boshqara olish lozimligini o'z xulosamizda olishimiz mumkin. Ahmad Yugnakiy ham o'z hikmatlarida nafsni jilovlash haqida ta'kidlab o'tib ketganlar:

Nafsni yenggan odam Haqqa yetar,

Hirsga berilsa, yo'ldan ozar, ketar.

Dunyoni sevgan kishi rasvo bo'lar,

Haqqa oshiq bo'sa, rohat topar.

"Tobut" hikoyasida esa barchamiz bir hovuch tuproqdan yaralganligimiz va Alloh taolo bizni yaratganligini va albatta o'sha tobutda vafot etishimizni va shu bilan bir qatorda oxiratimizni unutib qo'ymasligimiz lozimligini obrazlar va timsollar orqali o'qirmanlar qalbiga singdira oldi va o'chmas iz qoldira oladi.

ADABIYOTLAR

1. Saydazimova S. Nazar Eshonqul ijodida paranormal voqelikning modernistik talqini // O'zbekiston milliy axborot agentligi – O'zA ilm-fan bo'limi (elektron) jurnali, 2025 yil iyun soni. – B. 191-195.
2. Эшонқул Н. Сайланма II [Матн]: роман ва қиссалар. – Тошкент: Akademnashr, 2022. – Б. 510.
3. S.Saydazimova. Zamonaviy o'zbek qissalarida paranormal epizodlarning badiiy vazifasi. Filol. fan. b. fals. dok...(PhD) diss.avtoref. – Toshkent, 2025. – 52 b.
4. Куронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 90 б.
5. Эшонқул Н. Ижод фалсафаси. "Мен"дан менгача – Тошкент: Академнашр, 2018. – 416 б.